

**Umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida Informatika va axborot texnologiyalari fani olimpiadasini tashkil etish, o'tkazish hamda g'olib o'quvchilarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida**

**NIZOM**

**1. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom umumta'lim maktablari bitiruvchi sinf o'quvchilari o'rtasida Informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha olimpiadani tashkil etish, o'tkazish va g'oliblarni rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

**2. Olimpiadani tashkil etish tartibi**

2. Olimpiadaning bosqichlarini o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlarni bajarish uchun Urganch davlat universiteti hamda viloyat xalq ta'limi boshqarmasi o'z buyruqlari bilan tashkiliy qo'mita, hakamlar hay'atlarini tashkil etadilar.

**3. Tashkiliy qo'mita**

3. Olimpiadani tashkil etish uchun Urganch davlat universiteti hamda viloyat xalq ta'limi boshqarmasi bilan hamkorlikda o'tkaziladigan olimpiada hamda uning bosqichlarini o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tuziladi.

4. Quyidagilar tashkiliy qo'mitaning vazifalari hisoblanadi:

- olimpiada o'tkaziladigan joyni belgilash va tasdiqlash;
- hakamlar hay'ati tarkibi, auditoriya rahbarlari ro'yxatini shakllantirish;
- olimpiada nazorat materiallarining maxfiyligini, olimpiadani mazkur Nizom talablari asosida o'tkazilishini ta'minlash;
- olimpiadaning tashkil etilishi, o'tkazilishi va natijalarini ommaviy axborot vositalarida yoritib borish;
- olimpiada natijalari va hakamlar hay'ati qarori asosida g'oliblarni aniqlashdan iborat.

**4. Hakamlar hay'ati**

5. Olimpiadaning barcha bosqichlarida tashkiliy qo'mita tomonidan 3 kishidan 7 kishigacha tarkibda hakamlar hay'ati tuziladi.

6. Hakamlar hay'ati:

olimpiada jarayonida beriladigan nazorat materiallarini ekspertizadan o'tkazadi;

olimpiada ishtirokchilari tomonidan bajarilgan ishlarni Urganch davlat universiteti tomonidan tasdiqlangan baholash mezonlari asosida xolisona tekshiradi, baholaydi va g'oliblarni aniqlaydi;

natijalarni olimpiada o'tkazilgan kuni e'lon qiladi;

o'tkazilgan olimpiada natijalari bo'yicha qaror qabul qiladi va uni tashkiliy qo'mitaga taqdim etadi.

7. Hakamlar hay'ati tarkibi Urganch davlat universitetining yuqori malakali mutaxassislari jalb qilinadi. Hakamlar hay'ati a'zolari ochiq ovoz berish yo'li bilan hay'at raisini saylaydilar.

8. Hakamlar hay'ati a'zolari olimpiada g'oliblarini xolisona aniqlashda va nazorat materiallarining maxfiylikini ta'minlashda shaxsan javobgar hisoblanadi.

## **5. Auditoriya rahbari va nazoratchilar**

9. Tashkiliy qo'mita tomonidan olimpiada boshlanishidan oldin auditoriya rahbari va nazoratchilari tayinlanadi.

Fan o'qituvchisi o'z mutaxassislik yo'nalishida olimpiada o'tkazilayotgan auditoriyaga rahbar yoki nazoratchi etib tayinlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

10. Auditoriya rahbarlari:

ishtirokchilarga olimpiadaning tartib-qoidalari to'g'risida qisqacha tushuntiradi;

olimpiada boshlanishi va tugash vaqtini e'lon qiladi hamda olimpiada jarayonini nazorat qiladi;

Olimpiada jarayonida o'rnatilgan tartib-qoidalariga amal qilmagan o'quvchilarni olimpiadadan dalolatnoma tuzib chetlashtiradi;

11. Auditoriya nazoratchilari olimpiada o'tkazilayotgan va o'zlari birlashtirilgan auditoriyada tartib saqlanishini ta'minlaydilar va auditoriya rahbariga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda ko'maklashadilar.

12. Olimpiada o'tkaziladigan auditoriyalar videokuzatuv kameralari bilan jihozlanadi. Auditoriyada telefon va turli aloqa vositalaridan foydalanish taqiqlanadi.

13. Ommaviy axborot vositalari vakillariga olimpiada jarayoniga xalaqit qilmagan holda kuzatishlariga ruxsat beriladi.

14. Olimpiada o'tkazilayotgan jarayonda ishtirokchilarning o'zaro gaplashishi, aloqa vositalari va turli xil qo'shimcha manbalardan foydalanishi taqiqlanadi.

Bunday holatlar uchun ishtirokchi olimpiadadan chetlashtiriladi, bajargan ishlari tekshirilmaydi va baholanmaydi.

## **6. Olimpiadani o'tkazish tartibi**

15. Olimpiada ushbu Nizom asosida o'tkaziladi.

Bunda, Urganch davlat universiteti olimpiadasi (Informatika va axborot texnologiyalari fanidan) deb belgilanadi.

16. Informatika va axborot texnologiyalari fanidan nazorat turlari, shakllari, baholash mezonlari Urganch davlat universiteti tomonidan tasdiqlanadi.

17. Informatika va axborot texnologiyalari fanidan nazorat turlarida sinovlar umumta'lim maktablarining DTS asosida hamda xalqaro olimpiadalarning talablari va topshiriqlari metodologiyasini qo'llagan holda o'tkaziladi.

18. Olimpiada umumta'lim maktablarining bitiruvchi sinf (11-sinf) o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladi. Bunda o'quvchilar ixtiyoriy ravishda ishtirok etishlari mumkin.

19. Olimpiada ikki bosqichda quyidagi muddatlarda o'tkaziladi:

birinchi bosqich — Urganch davlat universiteti tomonidan taqdim etilgan <https://forms.gle/T3vPTwveQnt4ScnbA> havola orqali joriy yilning 19-aprel kuni soat 9:00 dan 18:00 gacha onlayn ro'yxatdan o'tish talab etiladi.

**Sinov bosqichi(19.04.2022):** Ushbu bosqichda jami 2 ta oson masala beriladi va bu masalarni yechish uchun 10<sup>00</sup> dan 18<sup>00</sup> gacha vaqt beriladi. O'quvchilar masalalarni ushbu <https://contest.yandex.ru/contest/37392/enter> havola orqali kirib yechishi va yechimlarini yuborishi kerak bo'ladi. Yuborilgan javoblar ACM baholash mezonini orqali baholanadi. Ushbu sinov bosqichi o'quvchilarni tizimda ishlashni o'rganishlari uchun bo'lib, yechilgan masalalar uchun olingan ballar hech qanday ahamiyat kasb etmaydi va sinov bosqichida qatnashish majburiy hisoblanmaydi.

**I bosqich(20.04.2022):** Ushbu bosqichda jami 10 ta masala beriladi va bu masalarni yechish uchun 10<sup>00</sup> dan boshlab 5 soat vaqt beriladi. O'quvchilar masalalarni ushbu <https://contest.yandex.ru/contest/37433/enter> havola orqali kirib yechishi va yechimlarini yuborishi kerak bo'ladi. Yuborilgan javoblar ACM baholash mezonini orqali baholanadi. Ushbu sinov bosqichi yakunida har bir o'quvchining tumanlar kesimida o'rnini aniqlanadi va har bir tuman (shahar)dan I va II o'rinni egallagan o'quvchilar keyingi bosqichga yo'llanmani qo'lga kiritishadi.

**II yakuniy bosqich(27.04.2022):** Olimpiadaning yakuniy bosqichi Urganch davlat universiteti binosida o'tkaziladi. Ushbu bosqichga o'tgan va har bir tuman (shahar)dan I va II o'rinni egallagan o'quvchilarni barcha xavfsizlik choralari ularning kelib ketishlariga shaxsan tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi mudirlari javobgar hisoblanadi.

Ushbu bosqichda jami 10 ta masala beriladi va bu masalarni yechish uchun 10<sup>00</sup> dan boshlab 5 soat vaqt ajratiladi. O'quvchilar masalalarni ushbu <https://contest.yandex.ru/contest/37434/enter> havola orqali kirib yechishi va yechimlarini yuborishi kerak bo'ladi. Yuborilgan javoblar ACM baholash mezonini orqali baholanadi. Olimpiadani I bosqichda olingan ballar II bosqichda inobatga olinmaydi. Ushbu yakuniy bosqichda faxrli I, II, III o'rinni egallagan o'quvchilar g'olib deb topiladi.

**ACM baholash mezonini:** Har bir qatnashchining yechgan masalalar soni, masalani yechish uchun ketgan vaqt va urinishlar sonini hisobga olgan holda qatnashchilarni o'rnini belgilaydi. Har bir masala uchun yuborilgan javobni turli hil testlar orqali tekshiriladi va yuborilgan javob barcha testlardan o'tsa yechim qabul qilinadi. Agar yechim noto'g'ri yoki hususiy hollar uchun bo'lsa qabul qilinmaydi.

Yechim qabul qilinmagan hollarda o'quvchi qaytadan urinish qilishi mumkin bo'ladi (Urinishlar soni ko'pi bilan 100 tagacha bo'lishi mumkin), ammo, har bir muvaffaqiyatsiz urinish uchun jarima sifatida 20 daqiqa qo'shiladi. O'quvchilar

o'zlarining yechimlari va egallagan o'rnini real vaqt rejimida ko'rib turishlari mumkin bo'ladi.

### **Tizimga yuborilgan natijalar uchun tizim tamondan qaytariladigan javoblar.**

<b>Xabar(uz)</b>	<b>Xabar(eng)</b>	<b>Qisqacha</b>
Yechim barcha testlardan muvaffaqiyatli o'tdi.	OK	OK
Kompilyatsiya xatosi	Compilation error	CE
Notog'ri javob	Wrong answer	WA
Taqdimot xatosi	Presentation error	PE
Vaqt chegarasidan oshib ketdi	Time-limit exceeded	TL
Xotira chegarasidan oshib ketdi	Memory limit exceeded	ML
Chiqish chegarasidan oshib ketdi	Output limit exceeded	OL
Dastur ishlash vaqtida xatolik	Run-time error	RE
Oldindan kompilyatsiya tekshiruvini amalga oshmadi	Precompile check failed	PCF
"Keraksiz amallar" oshib ketdi	Idleness limit exceeded	IL

20. Yakuniy bosqichni o'tkazish bilan bog'liq masalalar, nazorat materiallarining maxfiyligini, jarayonning adolatli va shaffof o'tkazilishini ta'minlashga Urganch davlat universiteti mas'ul hisoblanadi.

21. Tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi birinchi bosqich tashkil etilishini muvofiqlashtiradi hamda adolatli va shaffof o'tkazilishi bo'yicha nazoratni amalga oshiradi.

22. Olimpiadaning bu bosqichida 2021-2022-oquv yilida o'tkazilgan Informatika va axborot texnologiyalari fanidan fan olimpiadasining viloyat bosqichida g'olib bo'lib, 1-o'rinni egallagan o'quvchilar birinchi bosqich g'oliblari ikkinchi bosqichda ishtirok etmasdan to'g'ridan to'g'ri uchinchi bosqichda ishtirok etadilar.

23. Ikkinchi yakuniy bosqichda ishtirokchilar orasidan ballar ketma-ketligida 3 nafar (1, 2, 3-o'rinlar) g'olib aniqlanadi va hakamlar hay'ati qarori asosida tashkiliy qo'mita tomonidan tasdiqlanadi.

24. Hududiy xalq ta'limi boshqarmalari hamda tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari tomonidan ikkinchi yakuniy bosqichda ishtirok etadigan o'quvchilarni Urganch davlat universitetiga kelib ketishlarini nazorat qiladi.

## **7. Olimpiada g'oliblari hamda ularning o'qituvchilarini taqdirlash va rag'batlantirish**

25. Olimpiadaning ikkinchi yakuniy bosqichida g'olib bo'lgan 1-, 2-, 3-o'ringi egallagan o'quvchilar diplom, esdalik sovg'alar bilan taqdirlanadilar hamda Urganch davlat universiteti tomonidan Informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishiga imtihonsiz qabul qilinadilar.

26. G'olib o'quvchilarning fan o'qituvchilari tegishli tartibda faxriy yorliqlar bilan taqdirlanadilar.

## **8. Olimpiadani tashkil etishni moliyalashtirish tartibi**

27. Olimpiadani tashkil etish bilan bog'liq barcha sraf harajatlar Urganch davlat universiteti tomonidan amalga oshiriladi.

Bunda, olimpiadaning ikkinchi yakuniy bosqichida g'olib bo'lgan 1-, 2-, 3-o'ringi egallagan o'quvchilar oliy ta'lim muassasasining mablag'lari hisobidan birinchi o'quv yili uchun to'lov amalga oshiriladi.

## **9. Yakunlovchi qoidalar**

28. Olimpiadada o'quvchilarni ishtirok etishlarini viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

29. Olimpiadaning yakuniy bosqichlari Urganch davlat universitetida o'tkazilishini inobatga olgan holda ishtirokchilarning olimpiada o'tkaziladigan joyga kelib-ketishi, yo'llarda harakatlanish xavfsizligini ta'minlash bo'yicha barcha tashkiliy chora-tadbirlarni ko'rish hududiy xalq ta'limi bo'limlari zimmasiga yuklatiladi.

30. Olimpiada o'tkaziladigan joyning sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlariga mosligi, o'quvchilar sog'ligi bilan bog'liq masalalar Urganch davlat universiteti tomonidan nazoratga olinadi.